



## INSON VA JAMIYATNING MA'NAVIY VA AXLOQIY HAYOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6526589>

**Sadullayev Boburjon Baxtiyar o'g'li**

*Xorazm viloyati Xiva shahri*

*Ogahiy nomidagi ijod maktabi*

*ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rindbosari*

**Annotatsiya:** “Ma’naviyat” va “Axloq” tushunchalari shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mazmunini belgilashda asosiy hisoblanadi. Mazkur maqola, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, hamda har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli inson sifatida rivojlantirish yuksak ma’naviyatli inson qilib tarbiyalash haqida bo’ladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim va tarbiya, ma’naviyat, axloq, ma’naviy-axloqiy tarbiya oliv harbiy ta’lim muassasalarida, jismonan sog’lom, tarbiya, ma’naviy-axloqiy jihatlar, pedagogik jarayon, ilmiy-pedagogik xodimlar.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog’lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda

“Ma’naviyat” va “Axloq” tushunchalari shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mazmunini belgilashda asosiy hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda ular bir-biridan alohida emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi sifatida o’zaro bog’liq holda ko’rib chiqiladi. Tarbiya ma’naviy shaxsni shakllantirish jarayoni, axloq esa insonning xulqatvorini ichkaridan belgilab beruvchi ruhiy holat sifatida ta’riflanadi.

Ma’naviyat deganda har qanday tabiiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy bilimlarning inson tafakkurida mujassamlashuvi va bu bilimlarning ko’nikma, malaka va hayot tarzlariga aylanib ketishi tushuniladi. Yoki bo’lmasa, ma’naviyat - insonning ruhiyatini, o’z-o’zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go’zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, maqsad va g’oyalarni qo’ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir.

Ma’naviyat insonning ongi, tuyg’usi, hissiyoti, bilimi va e’tiqodida mujassamlashgan ruhiy sifat bo’lib, u shaxs kamoloti va barkamolligini belgilab beravchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Zero fuqarolari ma’naviy barkamol jamiyatgina ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak cho’qqilarga ko’tariladi.



Ma'naviyati yuksak bo'lgan jamiyatda taraqqiyotning o'ziga xosligi yaqqol ko'rindi. Yuksak ma'naviyatning belgisi shuki, unda bilim va ko'nikmalar insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uyg'unlashib ketadi.

Mamlakatimizda ma'naviy hayat sohalarida hozirgi paytda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xalqning ma'naviy-madaniy merosini o'rganish;
- sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish hamda hayatga tatbiq etish;
- jamiyatdagi sog'lom kuchlar - yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish;
- millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashni, yoshlarni Vatanimizning har tomonlama yetuk farzandlari ruhida tarbiyalash va ularni istiqlol ishining faol davomchilari bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy taraqqiyot yo'nalishlari bilan bog'liq omillarni, milliy davlatchilik qadriyatjarini o'rganish va ommalashtirish;
- umumbashariy qadriyatlardan foydalanish maqsadida dunyodagi xilma-xil mafkura, e'tiqod, g'oyalarni o'rganfsh, sog'lom diinyoqarashni hamda siyosiy madaniyatni shakllantirish;
- jamoat birlashmalari, ilmiy, ijodiy muassasa va tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining b'zaro samarali hamkorligini ta'minlash;
- hurfikrlilik, vijdon, va din erkinligini qaror toptirish;
- jamiyatning ahloqiy hayatini yaxshilash;

**Xulosa** qilib shuni aytish kerakki, jamiyatning ma'naviy hayoti va O'zbekistonda ma'naviy yangilanish masalalari yuqorida ko'rsatilib o'tilganidek, kishilarning ma'naviy olamini rivojlantirishga, jamiyatning ma'naviy qiyofasini yaxshilashga va bu bilan ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, pirovard natijada Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari. (Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari Respublika konferensiyasi materiallari). -T.: O'zbekistan, 1997 y.



2. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. T., O'zbekiston, 1997 y.
3. Soifnazarov I., Soifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchT., Mehnat, 1997 y.